

YENGIL SANOAT MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Karimboev Djasurbek Raxmimberganovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yengil sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqobatbardoshlik, sifat menejmenti tizimi, standartlash, sertifikatlash, modernizatsiya, diversifikatsiya.*

Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiy taraqqiyotga erishishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Asosan mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish oldimizga maqsad qilib qo‘yildi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 24 dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5285 sonli farmoni qabul qilindi. Farmonning ijrosi sifatida Respublikamizda keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda .

Yengil sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash strategik muammo bo‘lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etilishiga bog‘liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki mahsulot ishlab chiqarishda faqatgina ko‘proq foyda olish uchun emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir. Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ISO 9000 seriya standartlari qabul qilingach, sifatni kompleks boshqarishning ma‘lum darajasi belgilab beriladi.

U sifatni samarali boshqarishni ta‘minlab, ISO 9000 seriyali standartlarining barcha zarur elementlari, hamda korxonaning ixtisoslashuvi uchun qo‘shimcha talab etilgan elementlarni ham, korxonaning ish amaliyotiga joriy etilishi kerakligini shart qilib qo‘yadi va bu bilan buyurtmachiga sifat kafolatini beradi. ISO 9000 standartlari va Sifat menejmenti tizimini joriy etish konsepsiyasi korxonalarining faoliyat turiga ham, katta-kichikligiga cheklovlar qo‘ymaydi . ISO standartlari turkumining universalligi shundaki, ularda mahsulotning har bir turiga bo‘lgan mutloq o‘lchovli mezonlar qo‘yilmaydi. Buning iloji ham bo‘lmasdi, chunki sifat – mahsulot va xizmatlarning insonlar ehtiyojlarini qondira olish xususiyati, inson ehtiyojlari esa – bitmas-tuganmas va o‘zgaruvchidir. ISO 9000 standartlari turkumi faqat sifat tizimining ishlashi metodologiyasini aniqlab beradi, tizim

esa o'z navbatida korxonadan tomonidan ko'rsatilayotgan mahsulotning yuqori sifatini, boshqacha qilib aytganda – iste'molchilarning talabini yuqori darajada qanoatlantirishini ta'minlaydi. ISO 9000 standarti 9000 seriyali ISO standartlaridan qay birini tanlash va qanday qo'llash bo'yicha yo'riqnomani o'z ichiga olib, ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlari ("sifatni ta'minlash modellari", deb ham ataladi) mahsulot hayotiy siklining turli bosqichlari uchun mo'ljallangan, sifat tizimiga qo'yilgan me'yoriy talablardan iboratdir.

Korxonada raqobatbardoshligini oshirishda jarayonli yondoshuvni joriy etish katta ahamiyatga ega. Bu yondoshuvning mohiyati shundan iboratki, har qanday faoliyat bir jarayondir va bu jarayon turli resurslardan foydalanish va boshqaruv ta'siri orqali, kirish oqimlarini va chiqish oqimlariga aylantiradi.

Ishlarni tashkil qilish va boshqarishga jarayonli yondoshuvning bosh maqsadi - ko'pgina o'zaro bo'ysunib faoliyat yurituvchi tashkilotlarga xos bo'lgan tarqoqlik, unumsizlik va ichki mojarolardan xalos bo'lishdir. Butun asosiy e'tiborni funksiyadan jarayonga ko'chirish esa, korxonadan tomonidan muayyan iste'molchi yoki bozor segmentini qondirish uchun bajariladigan barcha harakat (operatsiya)larni birlashtiradi.

Bunday birlashuv boshqaruvni jipslashtirib, rahbariyatni jarayonlarni amaliy boshqarish bilan bog'liq bo'lgan joriy masalalar yechimidan ozod etadi. Menejmentga tizimli yondoshuv, tashkilotga o'zaro bog'liq jarayonlar yig'indisi sifatida qarashni talab etish bilan chambarchas bog'liqdir. Sifat masalalarining yalpi xususiyatini inobatga olib, qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan jarayonlarni aniqlash, tushunish va boshqarish korxonaning samaradorligini oshiradi.

Doimiy takomillashuv korxonaning asosiy maqsadi bo'lib qolishi kerak. Hozirgi sharoitda, buni amalga oshirmasdan, biznesda etakchi o'rinlarga chiqish mumkin emas. Faoliyat muntazam takomillashib borsa, nafaqat raqobatdosh mavqey saqlab qolinadi, balki sekin-asta zararlarni kamaytirish va shunga mutanosib ravishda, daromadni ko'paytirish imkoni paydo bo'la boshlaydi. Haqiqiy ma'lumotlar va axborotga asoslanib qabul qilingan qarorlar samarali bo'ladi. Bu ishni amalga oshirish, avvalo korxonada faoliyati haqida ishonchli va aniq ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ayni vaqtda, asta-sekin foydali bilimlarga aylanadigan axborotni to'plashni talab qiladi.

Sifat menejmenti tizimining joriy etilishi sifat cohadagi maqcadlarning bajarilishiga, auditlar natijacida nomuvofiqliklar konining kamayishiga, potensial muammolarni bartaraf etish bo'yicha oldini oluvchi amallarning to'g'rilovchi amallarga nicbatini, mahsulot rentabelligining oshishiga, iste'molchilar qanoatlanganligining oshishiga, shuningdek korxonada iqtisodiy samaradorligining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 24 dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5285 sonli farmoni
2. Xojiaxmedov G', Yaxyayeva I. va boshqalar. Sifat menejmenti. Darslik. T. –2012 y.
3. Glichev A.V. Osnovi upravleniya kachestvom produkcii. M., 2001g.
4. Ismatullaev P.R., Maqsudov A.N. va boshqalar. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. 2018
5. <http://www.standart.uz>